

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING “AYOLLAR DAFTARI”GA KIRITILGAN
AYOLLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATI

Abduraimov Javlonbek

IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti, safdor

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali siz profilaktika inspektorining alohida ko'makka muhtoj shaxsla shu jumaldan alohida ko'makka muhtoj ayollar bilan ishlash, ularga ijtimoiy himoya ko'rsatishda amaliy yordam berishi hamda ayollar daftariga kiritilgan ayollar bilan ishlashning zamonaviy usullari haqida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: profilaktika, inspector, alohida ko'mak, ayol, ayollar daftari.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholi, shu jumladan, xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'limgan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan fuqarolarga davlat tomonidan manzilli ko'maklashish bo'yicha mutlaqo yangicha tizim joriy qilindi.

Xususan, koronavirus pandemiyasining aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirini yumshatish, aholini ijtimoiy himoya qilish va ko'makka muhtoj oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlar amalgalashmoqda.

Bu yo'nالishda manzilli, har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qilish maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar bo'yicha mutlaqo yangi — «Temir daftar», ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji va ishtiyocoqi bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha tegishlicha «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» tizimlari hayotga tatbiq etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarliklarida 2021 yil 26 fevralda xotin-qizlar muammolarini hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda davlat organlarining mas'uliyatini oshirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan kengaytirilgan videoelektor yig'ilishida aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning hayot va turmush sharoitidagi muammolarini aniqlash, yakka tartibda ishlash orqali ularning hayot tarzini yaxshilash hamda ijtimoiy faolligini oshirish, shuningdek, aniqlangan muammolarni kompleks va manzilli hal qilish, mutasaddilarning hisobdorligi va faoliyatini baholash tartibini belgilash yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini so'zsiz ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

Ayollarni qo'llab quvvatlash qo'minatasining vazifa va funksiyalari -xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta'minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish; -oila va xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)

tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish; -xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish, qishloq joylardagi xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish; -xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalgaloshirish;

-xotin-qizlar yo'nalishidagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatiga yordam ko'rsatish.

2021 yilda ishsiz ayollar o'rtasida **jinoyatchilik 1,7 baravarga**, 18-30 yoshdagi xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan **jinoyatlar esa 2 baravarga** ko'paygan.

Bulardan tashqari, **oilada ayollarni xo'rash, ularga zo'ravonlik qilish va tazyiq o'tkazish** holatlari hali mavjud.

O'tgan 2021 yilda **39 mingga yaqin xotin-qizlar oilada eri, qaynonasi, kelini tomonidan zo'ravonlik** bo'layotgani haqida profilaktika inspektorlariga murojaat qilgan. Bu raqamlar 2020 yilga nisbatan **2,5 baravar ko'p**.

"Afsuski, bu muammolarni hal etishda mahalla faollari, jamoatchiligidan va nuroniylarimizning o'rni va ta'siri ham sezilmayapti.

Bir narsani aniq tushunishimiz kerak. **Ham, oila, ham bola tarbiyasi bilan shug'ullanish bilan birga, o'qish, ish yoki tadbirkorlikni olib borish katta matonat** talab qiladi", dedi Prezident.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ayollar daftari"ni yuritish ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lмаган xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, ularga davlat tomonidan manzilli tarzda ko'maklashish bo'yicha aniq tizim yaratilishiga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi axborot xizmati rahbari Saodat Boymirzayeva ishtirokidagi brifing 2021 yilda «Ayollar daftari» bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahliliga bag'ishlandi.

O'tgan yil davomida mazkur daftar samaradorligi qanday kechdi?

Mutaxassis tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan tegishli vazirlik va tashkilotlar, mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda bugungi kunga qadar «Ayollar daftari»ning mavjud 9 ta toifasi bo'yicha ro'yxatga olingan xotin-qizlarga har tomonlama yordam berilgan.

395 ming 729 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlarning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishiga ko'maklashilgan. 75 ming 469 nafar boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand xotin-qizlarga 58 milliard 928 million so'm miqdorida moddiy yordam berilgan va 66 ming 394 nafar nogironligi bo'lgan va o'zgalar parvarishiga

muhtoj xotin-qizlarga 55 milliard 87 million so‘mlik moddiy yordamlar belgilangan tartibda to‘lab berilgan.

5 ming 140 nafar uy-joyini ta‘mirlashga muhtoj I guruh nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarga moddiy yordam berilib, uy-joylari ta‘mirlangan. Noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o‘zining yoki birgalikda yashovchi oila a’zolarining nomida turar joy mavjud bo‘lmagan 5 ming 406 nafar xotin-qizlarga 9 milliard 975 million so‘mlik ijara kompensatsiyasi to‘lab berilgan. 5 ming 186 nafar ayollarning imtiyozli arzon uy-joylar olishlari uchun 18 milliard 918 million so‘m mablag‘ to‘lovi amalga oshirilgan.

Shuningdek, qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan bolasi mavjud yolg‘iz ayollarga «Ayollar daftari» jamg‘armasi mablag‘lari va boshqa manbalar hisobidan moddiy yordamlar ajratilgan. Ehtiyojmand xotin-qizlarga tibbiy xizmat ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Qayd etilishicha, hozirgi kunda «Ayollar daftari» bilan ishslash tizimining 3-bosqichi boshlandi.

«Ayollar daftari» tizimining 3-bosqichini tashkil etish bo‘yicha Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan tegishli vazirlik va tashkilotlar, mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda joriy yilda ham qator ishlar amalga oshirish belgilangan.

Ayni vaqtda respublikamizdagi barcha mahallalarda yashovchi 30 yoshdan oshgan xotin-qizlarni xonadonma-xonodon yurish orqali qayta ro‘yxatdan o‘tkazish ishlari boshlangan. 2022 yil 31 yanvariga qadar davom etishi belgilangan mazkur jarayonlar har bir mahallada tashkil etilgan Ishchi guruh a’zolari tomonidan olib boriladi. Ushbu Ishchi guruhga fuqarolar yig‘ini raisi, uning huquq-tartibot va oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha ikki nafar o‘rinbosari, hududiy davlat va jamoat tashkilotlari vakillari jalb etilgan.

XULOSA

«Ayollar daftari»ning 3-bosqichida kimlar daftarga kiritilmaydi?

3-bosqichda avvalo ayollarning muammolari qaytadan o‘rganiladi. Bunda hech bir ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qiz chetda qolib ketmasligiga alohida e’tibor beriladi. «Temir daftar»ga kiritilgan oilalardagi xotin-qizlar va farzandi «Yoshlar daftari»ga kiritilgan ayollar, 1- va 2-bosqichlarda 1-toifa bo‘yicha ro‘yxatga olingan hamda doimiy ish o‘rni bilan ta‘minlangan yoki tadbirdorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan xotin-qizlar «Ayollar daftari»ga kiritilmaydi.

2021 yilda 9 ta toifa bo‘yicha xotin-qizlar «Ayollar daftari»ga kiritilgan edi. Bu yil esa 6 ta toifaga ko‘ra kiritiladi, ro‘yxat nega kamaytirildi?

Xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Respublika komissiyasining 2021 yil 29 dekabrdagi kengaytirilgan yig‘ilishida 3-bosqichda amalga oshiriladigan ishlар belgilab berildi.

Joriy yilda «Ayollar daftari» bilan ishslash tizimi bo‘yicha mavjud qonunchilik hujjatlarida quyidagi muhim o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi. Jumladan, huquqiy,

tibbiy va psixologik yordamlar «Ayollar daftari»ning qaysi toifasiga kiritilishidan qat'i nazar, barcha xotin-qizlarga ko'rsatiladi.

«Ayollar daftari»ga kiritiladigan xotin-qizlarning ehtiyojmandlik darajasi, ya'ni ro'yxatga olinishi toifalari soni o'zaro muvofiqlashtirilishi natijasida oldingi 9 tadan 6 taga kamaytirildi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashda amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha O'zbekistonning xalqaro indekslarda yuqori ko'rsatkichlarga erishtirish maqsadida «Ayollar daftari»ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha huquqiy-normativ hujjat loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Loyihaga muvofiq, 2022 yilda «Ayollar daftari»ga ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar: bandligi ta'minlanmagan, ammo ishslash istagida bo'lgan, daromad manbaiga ega bo'lмаган ehtiyojmand xotin-qizlar, tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ammo bandligi ta'minlanmagan ehtiyojmand xotin-qizlar, boquvchisi vafot etgan yoki jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan yoxud ruhiy kasallikka chalingan, I va II guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek, boquvchisi bedarak yo'qolgan hamda nikohi bekor qilingan ehtiyojmand xotin-qizlar hamda FHDYO organlarining ma'lumotnomasiga ko'ra yolg'iz ayollar, ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan xotin-qizlar, mehnatga layoqatsiz, o'zgalar parvarishiga muhtoj xotin-qizlar, uy-joyga muhtoj ehtiyojmand, noturar joylarda istiqomat qilayotgan, doimiy turar joyi yo'q yoki turar joyida yashash uchun sharoiti bo'lмаган, bir xonadonda 3 va undan ortiq oila bo'lib yashayotgan, biroq o'zining yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy mavjud bo'lмаган ehtiyojmand xotin-qizlar va qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar 6 ta toifalar bo'yicha ro'yxatga olinishi rejalashtirilmoqda.

Ma'lumot uchun aytish lozimki, «Ijtimoiy himoya yagona ryestri» axborot tizimiga kiritilgan oilalardagi xotin-qizlar ham «Ayollar daftari»ga kiritilishi mumkin. «Ayollar daftari»ning 3-bosqichi ro'yxatiga kiritiladigan ehtiyojmand xotin-qizlar ro'yxatini shakllantirish ishlari joriy yil 10 fevralida yakunlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.03.2022 yildagi 145-son
2. 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son
3. «Ayollar daftari»ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risidagi nizom
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.04.2021 yildagi 250-son

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)

5. 2021 yil 26 fevralda xotin-qizlar muammolarini hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda davlat organlarining mas'uliyatini oshirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan kengaytirilgan videoselektor yig'ilishi

6. «Temir daftар» va «ayollar daftari»ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda «yoshlar daftari»ga kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlarning yakka tartibdagi xonadonida qo'shimcha uy-joy qurish uchun garovsiz kredit ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida